

TRANSMEDIA VA MULTIMEDIA IMKONIYATLAR

Berdiyeva Oydin

O`zJOKU o`qituvchisi

ANNOTATSIYA

Multimediya vositalari – bu insonga o`zi uchun tabiiy muhit: tovush, video, grafika, matnlar, animatsiya va boshqalardan foydalanib, kompyuter bilan muloqotda bo`lishga imkon beruvchi texnik va dasturiy vositalar majmuidir. Ma`lum bir davrda janr deb atalgan materiallar esa keyinchalik boshqalariga birikib ketishi va ma`lum bir janrning elementi sifatida e`tirof etilishi ham bor haqiqat. Uni talab va ehtiyojlar barobarida, yuksak iste`dodlar yaratadi va ularning izlanishlari an`anaviy “qolip”dan chiqib ketadi. Bu bevosita ijodiy muhit, taraqqiyotining ildizlari va undan oldingi faoliyatning qay darajada mukammalligiga borib taqaladi. Mukammal yaratilgan OAV asarlari esa, yangilikka intiluvchan yoshlar ma`naviyatini sayqallashga, ularni to`g`ri yo`naltirishga xizmat qiladi.

***Kalit so`zlar:** Multimedia, Internet, video, grafika, animatsiya, globallashuv, tovush kolonkalari*

ANNOTATION

Multimedia tools are a set of technical and software tools that allow a person to communicate with a computer using a natural environment: sound, video, graphics, texts, animation, etc. It is also a fact that the materials that were called a genre in a certain period later merge with others and are recognized as an element of a certain genre. It is created according to demand and needs, by high talents, and their research goes beyond the traditional "mould". This is directly related to the creative environment, the roots of its development and the level of perfection of the work that preceded it. Perfectly created mass media works serve to sharpen the spirituality of young people who strive for new things and guide them in the right direction.

***Keywords:** Multimedia, Internet, video, graphics, animation, globalization, sound speakers*

АННОТАЦИЯ

Мультимедийные средства — совокупность технических и программных средств, позволяющих человеку общаться с компьютером с использованием естественной среды: звука, видео, графики, текста, анимации и т. д. Фактом также является то, что материалы, названные жанром в определенный период, впоследствии сливаются с другими и признаются элементом определенного жанра. Он создается в соответствии со спросом и потребностями, талантливыми людьми, и их исследования выходят за рамки традиционных «форм». Это напрямую связано с творческой средой, корнями

ее развития и уровнем совершенства предшествовавшего ей произведения. Прекрасно созданные произведения средств массовой информации служат обострению духовности молодых людей, стремящихся к новому, и направляют их в правильном направлении.

Ключевые слова: Мультимедиа, Интернет, видео, графика, анимация, глобализация, звуковые колонки.

KIRISH

So‘nggi yillarda internet jurnalistikada yana yangi atama, tushuncha - multimedaviy tez-tez qo‘llanila boshlandi. Bu juda yangi mahsulot, lekin uning yangiligiga qaramay, nazariyotchilar turli adabiyotlarda unga ta‘rif bergan. Bu borada auditoriyaga tezkorlik, xolislik, aniqlik kabi tamoyillar birlamchi ahamiyatga ega. Hozirgi kunda axborot olish va axborot tarqatish maydoni sifatida internetning hayotimizning ajralmas qismiga aylanib ulgurdi. Global tarmoq, globallashuv axborot va multimedia hamda ommaviy axborot vositalari tushunchasini ham tubdan o‘zgartirib yubordi.

Multimediya vositalari – bu insonga o‘zi uchun tabiiy muhit: tovush, video, grafika, matnlar, animatsiya va boshqalardan foydalanib, kompyuter bilan muloqotda bo‘lishga imkon beruvchi texnik va dasturiy vositalar majmuidir.

ADABIYOTLAR SHARHI

Transmedia bu; bir necha medialarga moslashish ya‘ni bir vaqtning o‘zida xam gazeta xam jurnal, radio, gazeta bir vaqtning o‘zida faoliyat olib bora oladi va turli medialar orasida. Media tizimining tarkibiy qismi bir necha kontent integratsiyasidan tashkil topgan bo‘lib bunda xam profesional, ham havaskor teng huquqli ishtirokchi sifatida faoliyat. Media tizimining tarkibiy qismi bir necha kontent integratsiyasidan tashkil topgan bo‘lib bunda ham profesional, ham havaskor teng xuxuqli ishtirokchi sifatida faoliyat olib borishi mumkin. Qolaversa, taqdim etilgan axborotning ta‘sir ko‘lamini bilish, o‘quvchilar fikri bilan onlayn tanishish y‘ni gorizontak-vartikal aloqa imkoniyati ko‘p jihatdan kommunikatsiya elementlarini boyitadi¹.

Multimedia vositalari yordamida axborotlarni matnli, tasvirli, tovushli va animatsiyali ko‘rinishda namoyish etish mumkin. Multimediali axborot resurslari animatsiyali, audio va video ma‘lumotlardan tarkib topadi.

«Sizingcha, multimedaviy jurnalist qanday bo‘lishi kerak?», degan savolga: «... multimedaviy jurnalist - bu birinchi o‘rinda professional fotograf hamda operator

¹ Multimedia jurnalistikasi va konvergent tahririyat ‘‘Samonashr’’ Toshkent 2023

va albatta, qalami o'tkir ijodkordir. U materialni chiroyli yoritishni va unga o'quvchini qiziktirishni bilishi kerak», deb javob bergan. Albatta, bu borada multimedaviy jurnalist bir qancha xususiyatlarga ega bulishi kerak. Jumladan, - tezkor; dadil; o'z kasbinining mutaxassisi; - texnikani yaxshi tushunadigan; - maxoratli muxarrir; - voqea xodisani taxlil qila oladigan (shuningdek, unga tugri baxo xam bera oladigan); izlanuvchan (material tayyorlash jarayonida vokqea-xodisaga oid qo'shimcha ma'lumotlar izlashi lozim); - joyida oqilona yechim topa oladigan

Multimedia vositalari bu: nutqli axborotni kiritish-chiqarish qurilmalari (mikrofon, kuchaytirgichlar, tovush kolonkalari);Animatsion va video ma'lumotlarni kiritish va chiqarish qurilmalari (videokameralar, videoproektor va ekranlar)tovushli va video ma'lumotlarni saqlovchi optik disklar

Shunday ekan, o'zgaruvchan va taraqqiyot narvonlari balandlanib borayotgan bugungi dunyoda hamda uning kenja avlodlari bo'lgan yoshlar uchun yuqori sifatlarga javob beradigan OAV tarmoqlari kerak. Chunki bugungi kunda yoshlar estetik didini va dunyoqarashini OAVchalik to'g'ri yoki egri tarbiya qiladigan qulay vosita yo'q.

Transmedia bu; bir necha medialarga moslashish ya'ni bir vaqtning o'zida xam gazeta xam jurnal,radio,gazeta bir vaqtning o'zida faoliyat olib bora oladi va turli medialar orasida.Media tizimining tarkibiy qismi bir necha kontent integratsiyasidan tashkil topgan bo'lib bunda xam profesional, ham havaskor teng huquqli ishtirokchi sifatida faoliyat.Media tizimining tarkibiy qismi bir necha kontent integratsiyasidan tashkil topgan bo'lib bunda ham profesional,ham havaskor teng xuxuqli ishtirokchi sifatida faoliyat olib borishi mumkin.Qolaversa,taqdim etilgan axborotning ta'sir ko'lamini bilish,o'quvchilar fikri bilan onlayn tanishish y'ni gorizontak-vartikal aloqa imkoniyati ko'p jihatdan kommunikatsiya elementlarini boyitadi;

MUHOKAMA

“Axborot asri” deya ta'rif berilgan XXI asrda insoniyat hayotida axborot va unga munosabat tushunchasi tubdan o'zgardi. Dunyo mamlakatlarining rivojlanganlik darajasi, mavqei, salohiyati u yerda nechog'li axborotlashgan jamiyat barpo etilganligi bilan belgilanmoqda. Jamiyatning axborotlashganlik darajasi, demokratiyaning ustivor ko'rsatkichi hisoblanadi.

Istiqlolga erishgan O'zbekiston Respublikasi oldida tom ma'nodagi zamonaviy va ilg'or siyosiy tuzum yaratishdek sharaflig va mas'uliyatli vazifa ko'ndalang bo'ldi. Bu ulkan tarixiy vazifani amalga oshirishning muhim omillaridan biri Respublikada

ommaviy axborot vositalari faoliyatini mutlaqo yangi va zamonaviy talablar asosiga qurish bilan chambarchas bog‘liq edi.

Mana shunday bir davrda ommaviy axborot vositalarini isloh etish muhim masalaga aylandi. Zero, “Umumiy davlat tizimi tarkibiga kiradigan jurnalistika ayni chog‘da jamiyatning o‘ziga xos ijtimoiy instituti hisoblanadi. Ya’ni tizim ichidagi tizim...”.

Axborot tarqatuvchi asosiy sub’ekt - jurnalist. Global miqyosda aytadigan bo‘lsak, axborot asrimizning taqdiri ham ko‘p jihatdan jurnalistning zimmasida. Media tizimlarida ham axborot madaniyatning ijtimoiy-siyosiy, milliy-mahalliy, manaviy-ma’rifiy, huquqiy, falsafiy, e’tiqodiy, iqtisodiy umuminsoniy aspektlari haqida ham birinchi navbatda axborot madaniyatini shakllantiruvchi bosh sub’ekt-jurnalist qayg‘urishi kerak bo‘ladi. Jurnalist shaxsi mutlaqo yangicha qiyofa hosil qilayotgan ushbu jarayonini rossiyalik tadqiqotchi Irma Kumilganova “Jurnalistning sub’ektivlashuvi” deb ta’riflaydi.²

Xalqimiz yosh avlod siymosida hamisha ezgu va oliyjanob intilishlarning yorqin ifodasini ko‘radi. Ma’lumki OAV xalqning chinakam ulkan minbari. U xalq ommasini keng qatlamlarini ezgulik ruhida tarbiyalashda ularning dunyoqarashini shakllantirishda qudratli g‘oyaviy qurol bo‘lib xizmat qiladi.

Insoniyat aql-tafakkurining yanada o‘shishi, fan va texnikaning rivojlanishi bilan XXI asrga kelib ommaviy axborot vositalari tasnifiga yana bir tur, uning yana bir ko‘rinishi kelib qo‘shildi va u internet deb ataldi. (Inglizcha Internet-tarmoqlar aro degan mazmunni beradi). Bu – insoniyatning yana bir mo‘jizaviy kashfiyoti bo‘lmish elektron yozuv va hisoblash mashinalari-kompyuterlarning xalqaro tarmog‘idir. XX asrning oxirlariga kelib elektron texnologiyalar asosida matn yozish va hisoblash uchun ixtiro qilingan maxsus qurilmalar keyinchalik aloqa vositasi sifatida ham ishlatila boshlandi.

MULTIMEDIA – insoniyatga qulaylik tarqatish borasidagi kashfiyotlaridan biri ekan, u ham birinchi navbatda insoniyatga xizmat qilmog‘i, unga zarur, foydali axborotni yetkazib bermog‘i shart. Multimedaning insoniyatga juda katta ko‘lamda axborot yetkazib berishida umuminsoniylik prinsipi asosiy mezon bo‘lmog‘i kerak. Hozirgi zamon interneti o‘z faoliyatida bu talabga asosan rioya qilib kelmoqda. Shu bilan birlikda, unda ayrim bir yoqlama, oldi-qochdi, uncha to‘g‘ri bo‘lmagan videolar, behayo matn va suratlar ham berilishi OAVning ushbu qoidasiga ziddir, bu uning insoniyatga keng ko‘lamda, foydali yetkazib berishdek mas’uliyatli funksiyasini bajarishda monelik qiladi. Shuningdek, OAVning xalqchillik, milliylik prinsiplari

² Кумилганова И.А. Нравственные критерии в профессиональной журналистской деятельности.- Автореф. Дис. ...канд. Филол.наук.-М.: МГУ. 1992. 14с

ham internet faoliyati uchun taalluqli hisoblanadi. Internet xalqaro-global xarakterga ega bo'lganligi uchun mazkur tamoyillar uning faoliyatida o'ziga xos ko'rinish kasb etadi.

Multimediaviy jurnalist texnika bilan ishlash malakasiga ega bulishi kerak. Yani, bunda jurnalist foto va video apparatlarni ishlatishni, montaj jarayonini yaxshi oilishi. budan tugri va o'rinli foydalanishi lozim. Agar ma'lum bir algoritmgga amal qilinsa, eng murakkab texnologiyalarni xam ishlata olish mumkin.. Ushbu texnik vositalar yordamida nimalar qilish mumkin? Birinchi bosqichda u yoki bu dastur qanday vazifani bajaradi, shuni aniqlab olish zarur. Masalan, GoAnimate dasturi xech qanday montajchi, dizayner, ovoz rejissyori ishtirokisiz mustakil ravishda animatsion infografika yaratishga yordam beradi.³

Butun dunyoga, butun dunyo voqealari, insoniyat hayoti haqida yangiliklar, informatsiya va boshqa ma'lumotlar yetkazib beruvchi bu ommaviy axborot vositasi faqat haqqoniy, tekshirilgan, to'g'ri informatsiyalar, ma'lumotlar yetkazishi shart. Dunyoda internetdan foydalanuvchilarning soni tobora oshib borayotganligi uning yanada ommalashib borayotganligidan dalolat beradi.

Multimediaviy maxsulot yaratish mukammal jarayon bo'lgani bois, uning xar bir qismini aloxida rejalashtirish va ma'lum vaqtni talab etadi. Loyiha boshqaruvchisi ana shu narsalarga e'tibor qaratib, asosiy qismga tayyorgarlik kurishda dedlayn, jarayon bosqichlari va muddatlarni tugri hisoblashi kerak. Mavzu va janr aniqlangach, multimediaviy maxsulot ustida jamoa ish olib boradi. Katta taxririatlarda jamoada asosiy rolni prodyusser, redaktor, g'oya va matn muallifi, muxbir, fotograf, operatorlar bajaradi. Multimediaviy maxsulot yaratishda eng so'nggi ishni sahifalovchi va dasturchilar amalga oshiradi⁴

Shunday texnika mo'jizasidan ba'zi buzg'unchilarning o'ta g'arazli maqsadlarda foydalanayotganlarini taassuf bilan aytish mumkin. "Ayni paytda hayot haqiqati shuni ko'rsatadiki, har qanday taraqqiyot mahsulidan ikki xil maqsadda ezgulik va yovuzlik yo'lida foydalanish mumkin. Agarki bashariyat tarixini, uning tafakkur rivojini tarkibiy ravishda ko'zdan kechiradigan bo'lsak, hayotda insonni kamolotga, yuksak marralarga chorlaydigan ezgu g'oya va ta'limotlar bilan yovuz va zararli g'oyalar o'rtasida azaldan kurash mavjud bo'lib kelganini va bu kurash bugun ham davom etayotganini ko'ramiz,— deb ta'kidlagan edi Birinchi Prezidentimiz.— Bugungi kunda zamonaviy axborot maydonidagi harakatlar shu qadar tig'iz, shu qadar tezkorki, endi ilgarigidek, ha, bu voqea bizdan juda olisda yuz beribdi, uning bizga

³ Onlayn jurnalistikada mediada yangi trendlar Toshkent <<O'zbekiston>> 2019 yil 248 bet

⁴ Onlayn jurnalistikada mediada yangi trendlar Toshkent <<O'zbekiston>> 2019 yil 252 bet

aloqasi yo‘q, deb beparvo qarab bo‘lmaydi. Ana shunday kayfiyatga berilgan xalq yoki millat taraqqiyotdan yuz yillar orqada qolib ketishi hech gap emas”⁵

Multimedia auditoriyangiz bilan bog‘lanishning ajoyib usuli bo‘lishi mumkin - ular turli demografik guruhlariga murojaat qilishda yuqori sifatli ma‘lumotlarni taqdim etish imkonini beradi va odamlarga kontentingizni onlayn ravishda almashishni osonlashtiradi. Internet nihoyatda muhim bozor bo‘lib, multimedia tendentsiyasi o‘shishda davom etar ekan, har bir biznesga sarmoya kiritish yoki uni qo‘shish oqilona.

Multimedia foydalanuvchi interfeysini maqtaydi - Multimedia foydalanuvchiga ma‘lumot yetkazadigan matn, audio yoki vizual elementlarni o‘z ichiga oladi. Bu rasmlar, videolar, o‘yinlar va animatsiyalarni o‘z ichiga olishi mumkin. Ular veb-sayt yoki blog postiga joylashtirilishi yoki mustaqil elementlar sifatida taqdim etilishi mumkin. Foydalanuvchilar uchun multimedia vositalari mavjud bo‘lishi juda muhim, chunki ular o‘z fikrlari va Internetning qolgan qismi o‘rtasida ko‘prikn ta‘minlash orqali o‘z mazmuni bilan yanada ta‘sirli tarzda shug‘ullanish imkonini beradi.

Multimedia yanada interaktiv, jozibador jarayonni yaratish uchun mavjud marketing faoliyatiga birlashtirilishi mumkin. Bu mijozga jarayonning bir qismi ekanligini his qilishiga yordam beradi va kompaniya va iste‘molchi o‘rtasidagi mustahkam aloqalarni o‘rnatadi. Misol uchun, Instagram yoki Facebook-da mahsulotni targ‘ib qilish paytida kontent YouTube-da baham ko‘rilishi mumkin.⁶

Multimedia vositalari asosida o‘quvchilarga ta‘lim berish va kadrlarni qayta tayyorlashni yo‘lga qo‘yish hozirgi kunning dolzarb masalalaridandir. Multimedia tushunchasi 90-yillar boshida xayotimizga kirib keldi. Uning o‘zi nima degan savol tug‘iladi? Ko‘pgina mutaxassislar bu atamani turlicha tahlil qilishmoqda. Bizning fikrimizcha, multimedia - bu informatikaning dasturiy va texnikaviy vositalari asosida audio, video, matn, grafika va animatsiya (ob‘yektlarining fazodagi xarakati) effektlari asosida o‘quv materiallarini o‘quvchilarga yetkazib berishning mujassamlangan xoldagi ko‘rinishidir.⁷

XULOSA

Dunyodagi barcha rivojlangan mamlakatlar qatori mustaqil respublikamizda ham internet tarmog‘idan keng foydalanilmoqda. Keyingi yillarda o‘zbek tilidagi internet vujudga keldi va undagi o‘nlab ijtimoiy tarmoqlar, multimedia vositalardan foydalib veb- saytlar o‘z faolyatini davom ettirib kelmoqda. Internetda faoliyat ko‘rsatuvchi jurnalist keng bilim, davr taraqqiyoti uchun xizmat qiladigan ilg‘or

⁵ Каримов И.А. юксак маънавият –енгилмас куч. – Т.: Маънавият, 2008. 48-бет.

⁶ Kompu.info multimedia tizimga kirish 05.01.2022

⁷ Fayllar.org [02.02.2024 13:35]

dunyo qarashga ega bo‘lishi, shu bilan birlikda internet texnikasini yetarli egallab olishi kerak bo‘ladi.

Xozirgi kunda har bir kishining ish faoliyatida doimiy ravishda multimediyadan foydalanishehtiyojimavjud. Multimedia vositalari zamonaviy axborot-kommunikatsion texnologiyalarining ajralmas qismi bo‘lib, hayotimizning bir bo‘lagig aylangan. Multimedia texnologiyalardan o‘quv jarayonida foydalanish ta’lim sifatini hamda ta’lim oluvchining o‘zashtirish samaradorligini oshirishda xizmat qiladi

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Onlayn jurnalistikada mediada yangi trendlar Toshkent <<O‘zbekiston>> 2019 yil 246 bet
2. Кумилганова И.А. Нравственные критерии в профессиональной журналистской деятельности.:- Автореф. Дис.канд. Филол.наук.-М .: МГУ. 1992. 14с
3. Onlayn jurnalistikada mediada yangi trendlar Toshkent <<O‘zbekiston>> 2019 yil 248 bet
4. Onlayn jurnalistikada mediada yangi trendlar Toshkent <<O‘zbekiston>> 2019 yil 252 bet
5. Каримов И.А. юксак маънавият –енгилмас куч. – Т.: Маънавият, 2008. 48-бет.